

---

## □ Lider tadbirkorlar imkoniyati, bu yangi ish o'rnini demakdir

✂ Bugungi kunda hududlardagi lider tadbirkorlar imkoniyatlari va ularning sayi harakatlari alohida ahamiyatga ega. Har bir sohada bo'lagi kabi tomorqachilikda ham bu borada keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, tumanimizdagi "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarni bandligini ta'minlash masalasida ham ekin yeri ajratib berilgan edi.

Aniqrog'i, "Yoshlar" daftariga kiritilgan yoshlarning har biriga 14 sotixdan yer maydoni ajratib berildi. Ekin yerini qabul qilib olgan yoshlar, kelgusida shu ekin maydonida sabzavot va poliz ekinlari ekib-parvarishlab, daromad olib, oilaviy ehtiyojini qondirish, ehtiyojidan ortiqcha qismini esa ichki bozorda sotib daromad olishmoqda.

Aytish joizki ushbu soha ham lider tadbirkorlar yetishmayotgan edi. Endilikda yoshlar imkoniyatini yanada kengaytirish maqsadida lider tadbirkorlar yoshlarni biriktirish ishlari yo'lga qo'yildi. Bugun tuman hokimi va sektor rahbarlari va 14 sotixdan yer maydoni egalari bilan uchrashuvlar tashkil etildi. Unda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish va tajriba almashish katta daromad olish imkoniyati ekanligi ta'kidlandi.

**Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2024-03-13 15:22:34